O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 81-13

Mohigul R. OMONOVA
Tayanch doktoranti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston
E-mail: m.omonova@mail.ru, https://orcid.org/0009-0000-6003-5393

FarDTU, PhD, Sh.Numonjonov taqrizi asosida

LUG’ATLAR BILAN ISHLASHDA GUIDED LEXICAL DISCOVERY MODELINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada lug‘atlar bilan ishlash jarayonida Guided Lexical Discovery (GLD) modeling modelidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Model orqali o‘quvchilarning yangi leksik birliklarni mustaqil izlash, kontekst asosida ma’nosini aniqlash, lug‘at ma’lumotlarini tahlil qilish va amaliy nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, GLD modelining bosqichma-bosqich yo‘naltirish, mustaqil ta’lim va leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Guided Lexical Discovery, GLD modeli, lug‘at bilan ishlash, leksik kompetensiya, leksik birlik, kontekst, mustaqil ta’lim, lug‘atdan foydalanish, ingliz tili, pedagogik imkoniyatlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МОДЕЛИ GUIDED LEXICAL DISCOVERY В РАБОТЕ СО СЛОВАРЯМИ

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические возможности использования модели Guided Lexical Discovery (GLD) в процессе работы со словарями. Анализируются вопросы развития у учащихся навыков самостоятельного поиска новых лексических единиц, определения их значения на основе контекста, анализа словарной информации и использования изученной лексики в практической речи. Также обосновывается эффективность модели GLD в поэтапном направленном обучении, развитии навыков самостоятельного обучения и формировании лексической компетенции.

Ключевые слова: Guided Lexical Discovery, модель GLD, работа со словарями, лексическая компетенция, лексическая единица, контекст, самостоятельное обучение, использование словаря, английский язык, педагогические возможности.

PEDAGOGICAL POTENTIALS OF THE GUIDED LEXICAL DISCOVERY MODEL IN DICTIONARY USE

Annotation

This article examines the pedagogical potential of using the Guided Lexical Discovery (GLD) model in the process of working with dictionaries. It analyzes ways of developing learners’ skills in independently searching for new lexical units, determining their meanings based on context, analyzing dictionary information, and applying newly acquired vocabulary in practical speech. The article also substantiates the effectiveness of the GLD model in providing step-by-step guidance, developing independent learning skills, and enhancing learners’ lexical competence.

Keywords: Guided Lexical Discovery, GLD model, dictionary use, lexical competence, lexical unit, context, independent learning, dictionary skills, English language, pedagogical potential.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda lug‘at boyligini kengaytirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishda lug‘atlar bilan ishlashning innovatsion usullaridan foydalanish o‘quvchilarning so‘z ma’nolarini chuqur anglash, ularning kontekstual xususiyatlarini farqlash va nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Guided Lexical Discovery (yo‘naltirilgan leksik kashfiyot) modeli o‘quvchilarning yangi leksik birliklarni o‘qituvchi rahbarligida mustaqil izlanish, kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish orqali o‘zlashtirishiga asoslangan pedagogik yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur model lug‘atlardan foydalanish jarayonini oddiy so‘z tarjimasini aniqlash faoliyatidan izlanishga asoslangan faol bilish jarayoniga aylantirishga xizmat qiladi.


Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Lug‘atlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishda tilni “his qilish” hodisasi zamonaviy lingvodidaktikada lingvo-madaniy kompetensiya va sotsiolingvistik sezgirlik tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u nafaqat so‘zning denotativ ma’nosini, balki uning konnotativ va pragmatik xususiyatlarini anglashni anglatadi. Xususan, frazeologizmlar, idiomalar va matn osti yashirin ma’nolarni (implitsitlik) tushunish o‘rganuvchidan yuqori darajada kognitiv qobiliyat talab etadi.

Bu borada o‘zbek tilshunos olimlaridan professor N.Mahmudov ham til va madaniyat uyg’unligiga e’tibor qaratib, “har bir frazeologik birlik ortida xalqning milliy tafakkuri, asriy an’analari va dunyoni obrazli ko‘rish xususiyati yashirin” ekanligini qayd etadi[1]. Frazeologizmlar va idiomalarni o‘rganishda metodik jihatdan “kontekstual deduksiyta” usuli eng samarali hisoblanadi. Bu usul o‘quvchidan so‘zning lug’atdagi ma’nosiga tayanmasdan, balki gapning umumiy semantik muhitidan kelib chiqib mantiqiy xulosa chiqarishni talab qiladi. Shuningdek professor Sh.Rahmatullayev o‘z tadqiqotlarida frazeologik birliklarining ma’no ko‘lamini aniqlashda ularning o‘zgaruvchanlik (variativlik) va turg’unlik xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi[2]. Tilni “his qilish” hodisasi doirasida metodik jihatdan metaforik tahlil va lingokulturologik sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodika asosida o‘rganuvchilarda tilni chuqurroq tushunish imkoniyatini yaratish mumkin. Ya’ni bunda o‘rganuvchi iboraning kelib chiqishi (etimologiyasi) va uning

jamiyatdagi yukini tushunsa, uning xotirada saqlanish darajasi (retensiya) bir necha barobarga ortadi.

Shuningdek, N.Galskovaning fikricha, o‘rganuvchi C1-C2 darajalarida “tilning nozik stilistik qatlamlarini farqlashi uchun matndagi yshirin ma’nolarni (subtext) o‘qiy olish ko‘nikmasini rivojlantirilishi shart, bu esa sotsiomadaniy kompetensiyaning oliy ko‘rinishidir[3]. Demak, tilni his qilish sirlari ftrazeologizmlarni muntazam ravishda asl manbalarda (badiiy adabiyot, audio-vizual materillar) tahlil qilish, ularning milliy universal jihatlarini qiyoslash hamda nutqiy vaziyatlarda onli ravishda qo‘llash orqali shakllanadi. Bu jarayon til o‘rganuvchining oddiy so‘z tashuvchidan tilning madaniy qatlamlarini tushunuvchi sotsial subyekt darajasiga ko‘taradi.

Natijalar va Muhokama. Lug‘atlar bilan ishlash jarayoni murakkab va har bir darajaga mos metodikani to’g’ri tanlay olish natijasida samaradorlikka erishish mumkin. A1-A2 darajadagi talabalarda lug’atdan foydalanish ko’pincha so’zning tarjimasini topish bilangina cheklanadi. Natijada lug’atning didaktik imkoniyatlaridan to’liq foydalanimaydi hamda leksik birliklarning grammatik va kommunikativ xususiyatlarini o’zlashtirishjarayoni yuzaki tus oladi. Shu nutqai nazardan lug’atlar bilan ishlashda A darajaga mos keluvchi Guided lexical discovery modeli muhim hisobalanadi. A1-A2 darajadagi ingliz tilini o’rgaunvchilarning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish va ularni kommunikativ vaziyatlarda faol qo’llash ko’nikmalarini shakllantiradi. Mazkur model yangi birliklarni o’zlashtirish oltita ketma-ket bosqich asosida amalga oshiriladi.



2.1-rasm. Guided lexical discovery modeli asosida lug’atlar bilan ishlash bosqichlari

Modelning muhim metodik xususiyatlaridan biri unda so‘z turkumlari bo‘yicha differensial yondashuvning qo‘llanilishidir. Zamonaviy lingvistika va pedagogik leksikografiyada har bir so‘z turkumining o‘ziga xos grammatik va funksional xususiyatlarga egaligi e’tirof etiladi. Shu sababdan Guided lexical discovery model har bir so‘z turkumi bilan ishlashda o‘quvchining e’tibori turli jihatlarga qaratiladi. Masalan, otlarni o‘rganishda ularning sanaladigan yoki sanalmaydiganligi, birlik va ko‘plik shakllari hamda tipik kollokatsiyalariga, fe’llarni o‘rganishda esa o‘timli yoki o‘timsizligi, grammatik modellari va frazal fe’llariga alohida e’tibor beriladi. Sifatlar bilan ishlashda darajalanish shakllari va ular bilan hosil qilinadigan birikmalar, ravishlarni o‘rganishda esa ularning gapdagi o‘rni va fe’llar bilan birikish xususiyatlari asosiy tahlil obyekti hisoblanadi. Bizningcha, aynan bunday differensial yondashuv o‘quvchilarda lug‘atdan foydalanish jarayonini tizimlashtiradi hamda ularning lingvistik tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Mazkur model learner’s dictionaries bilan ishlashni mustaqil strategiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona metodik tizim sifatida talqin etishida namoyon bo‘ladi. GLDM modelining asosiy qulayliklari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

Birinchidan, mavjud metodikalarda lug‘at ko‘pincha yordamchi vosita sifatida qaralsa, GLDMda u ta’lim jarayonining markaziy komponentiga aylantiriladi.

Ikkinchidan, model CEFRning learner autonomy tamoyillarini lug‘atlar bilan ishlash metodikasiga integratsiya qiladi va o‘quvchini mustaqil bilim olishga yo‘naltiradi.

Uchinchidan, model har bir yangi leksik birlikni tanlash, tahlil qilish, shaxsiylashtirish va kommunikativ faoliyatda qo‘llashning uzviy ketma-ketligini ta’minlaydi.

To’rtinchidan, so‘z turkumlari bo‘yicha differensial metodik yondashuvni qo‘llash orqali lug‘atdan foydalanish jarayoni yanada ilmiy asoslangan va tizimli tus oladi.

Guided Lexical Discovery Model A1–A2 darajadagi ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun learner’s dictionaries bilan ishlashni ilmiy asosda tashkil etuvchi, CEFR tamoyillariga mos, bosqichma-bosqich va kommunikativ yo‘naltirilgan metodik model hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mazkur model lug‘atdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, leksik birliklarning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqurroq o‘zlashtirish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning amaliyotga joriy etilishi ingliz tilini o‘qitishda learner’s dictionariesning didaktik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish va lug‘atlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2.1-jadval. Guided Lexical Discovery Model (GLDM) asosida A1–A2 darajadagi o‘quvchilarda so‘z turkumlari bo‘yicha learner’s dictionaries bilan ishlash metodikasi

So‘z turkumi	Lug‘atda aniqlanadigan asosiy ma’lumotlar	O‘quvchining bajaradigan amaliy faoliyati	Kutilayotgan natija
Ot (Noun)	So‘z turkumi (noun), countable/uncountable, birlik va ko‘plik shakllari, artikllar bilan qo‘llanishi, tipik kollokatsiyalar	So‘zning sanaladigan yoki sanalmaydiganligini aniqlaydi, ko‘plik shaklini topadi, kollokatsiyalarni o‘rganadi va ular ishtirokida sodda gaplar tuzadi.	O‘quvchi otlarning grammatik xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlaydi hamda ularni real nutqda tabiiy qo‘llash ko‘nikmasini egallaydi.
Fe’l (Verb)	So‘z turkumi (verb), regular/irregular shakli, transitive/intransitive, verb patterns,	Fe’lning grammatik turini aniqlaydi, asosiy shakllarini o‘rganadi, kollokatsiyalar asosida og‘zaki va	O‘quvchi fe’llarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash va tipik nutqiy modellardan foydalanish

	tipik kollokatsiyalar	yozma mashqlar bajaradi.	ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.
Sifat (Adjective)	So‘z turkumi (adjective), comparative va superlative shakllari, sinonimlar, antonimlar, tipik adjective + noun kollokatsiyalari	Darajalanish shakllarini aniqlaydi, sifat ishtirokidagi birikmalarni lug‘atdan topadi va ular asosida gaplar tuzadi.	O‘quvchi sifatlarning grammatik shakllari va tabiiy birikmalarini kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llaydi.
Ravish (Adverb)	So‘z turkumi (adverb), gapdagi o‘rni (word order), qaysi fe’l yoki sifatni tavsiflashi, tipik kollokatsiyalar	Ravishning gapdagi vazifasini aniqlaydi, fe’llar bilan qo‘llanishini kuzatadi va namunaviy gaplar tuzadi.	O‘quvchi ravishlarning gapdagi funksiyasini anglaydi hamda ularni nutqda grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llaydi.

Xulosa. Guided Lexical Discovery Modelning so‘z turkumlari bo‘yicha differensial yondashuvini aks ettiradi. Modelda har bir so‘z turkumi uchun lug‘atdan olinadigan axborot turi oldindan belgilangan bo‘lib, bu o‘quvchilarning e’tiborini aynan shu turkum uchun muhim bo‘lgan grammatik va leksik xususiyatlarga qaratadi. Natijada lug‘atdan foydalanish jarayoni tasodifiy axborot qidirish emas, balki maqsadli tahlil va kommunikativ qo‘llashga yo‘naltirilgan metodik faoliyatga aylanadi. Bizningcha, bunday differensial yondashuv A1–A2 darajadagi o‘quvchilarda lug‘atdan mustaqil foydalanish kompetensiyasini shakllantirish, yangi leksik birliklarni tizimli o‘zlashtirish hamda ularni real nutqiy vaziyatlarda samarali qo‘llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 3. – Б. 3-16.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 380 б.
3. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с